

## BACHADON MIOMASI: ULTRATOVUSH TEKSHIRUVI DIAGNOSTIKASI VA KLINIK AHAMIYATI

Ibragimova Yulduz Jozilovna

**Annotatsiya:** *Bachadon miomasi (leyomioma) ayollar reproduktiv tizimida eng ko‘p uchraydigan o‘sma hisoblanadi. Ushbu maqolada bachadon miomasining rivojlanish mexanizmlari, klinik belgilari hamda ultratovush tekshiruv yordamida aniqlashning zamonaviy yondashuvlari yoritib berilgan. Ultratovush tekshiruv diagnostikasi miomani erta aniqlash, uning joylashuvi, o‘lchami va dinamikasini baholashda muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so‘zlar:** *bachadon miomasi, leiomioma, ultratovush tekshiruv, diagnostika, ginekologiya.*

**Аннотация:** *Миома матки (лейомиома) является одним из наиболее часто встречающихся доброкачественных новообразований репродуктивной системы у женщин. В данной статье освещены механизмы развития миомы матки, её клинические проявления, а также современные подходы к диагностике с использованием ультразвукового исследования. Ультразвуковая диагностика играет важную роль в раннем выявлении миомы, оценке её локализации, размеров и динамики развития.*

**Ключевые слова:** *миома матки, лейомиома, ультразвуковое исследование, диагностика, гинекология.*

**Abstract:** *Uterine fibroids (leiomyoma) are among the most common benign tumors of the female reproductive system. This article highlights the mechanisms of development of uterine fibroids, their clinical manifestations, as well as modern diagnostic approaches using ultrasound examination. Ultrasound diagnostics play an important role in the early detection of fibroids and in assessing their localization, size, and growth dynamics.*

**Keywords:** *uterine fibroids, leiomyoma, ultrasound examination, diagnostics, gynecology.*

Leiomioma - silliq mushaklarning xavfsiz o‘smasi bo‘lib, juda kamdan-kam hollarda saratonga aylanadi(0,1%). Leiomiomalar har qanday organda paydo bo‘lishi mumkin, lekin eng ko‘p bachadon, ingichka ichak va qizilo‘ngachda uchraydi. Atama “leio” + “myo” + “oma”, “silliq mushak o‘smasi” so‘zidan olingan .

Bachadon miomalari bachadon silliq mushaklarining leiomiomasidir. Boshqa leiomiomalar singari, ular ham xavfsiz o‘sma, ammo hayz vaqtida ko‘p miqdorda qon ketishiga olib kelishi mumkin, bundan tashqari, ko‘pincha anemiyaga olib keladi va bepushtlikka sabab bo‘ladi.

Bachadon miomasi – bu bachadonning biriktiruvchi to‘qima va mushak tolalarining o‘simtasimon o‘shidir , ko‘pincha reproduktiv yoshdagi ayollarda uchraydi. Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 35-50 yoshdagi ayollarning 30-40 foizida bachadon miomasi aniqlanadi. Kasallik ko‘p hollarda yashirin kechadi va tasodifan ultratovush tekshiruv vaqtida aniqlanadi.



Bachadon miomasining kelib chiqishida gormonal omillar, xususan estrogen va progesteron muvozanatining buzilishi asosiy rol o‘ynaydi. Shuningdek, irsiy moyillik, surunkali yallig‘lanish jarayonlari, gormonal preparatlarni uzoq muddat qabul qilish va stress omillari ham kasallik rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatadi.

Bachadon miomalari joylashuviga qarab quyidagi turlarga bo‘linadi:

- intramural mioma, ya’ni bachadonning mushak devorida rivojlanadigan miomaning eng keng tarqalgan turi;

- subserosal miomalar, ya’ni bachadon devoridan tashqarida tos bo‘shlig‘iga o‘sib, juda katta bo‘lishi mumkin bo‘lgan miomalar;

- submukozal mioma, ya’ni bachadon ichki qoplami ostidagi mushak qavatida rivojlanib, bachadon bo‘shlig‘iga o‘sadigan mioma ;

- oyoqli mioma, ya’ni bachadon bilan ingichka oyoqcha orqali bog‘langan shakl.

Mazkur tasnif klinik belgilarning namoyon bo‘lishi va davolash usulini tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bachadon miomasi ginekologik amaliyotda tez-tez uchraydigan patologiyalardan biri bo‘lib, asosan tug‘ish yoshidagi ayollar orasida aniqlanadi. Ushbu kasallik bachadon mushak qatlamining mahalliy o‘sishi natijasida yuzaga keladi va ko‘plab holatlarda uzoq vaqt davomida hech qanday shikoyatlarsiz kechadi. Shu bois miomani aniqlashda profilaktik ko‘riklar va ultratovush tekshiruvlarining ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Mioma ayol organizmining umumiy holatiga, reproduktiv salohiyatiga va hayot sifatiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Kasallikni o‘z vaqtida aniqlash va to‘g‘ri baholash samarali davolashning asosiy sharti hisoblanadi. Bachadon miomasining rivojlanishi ko‘p omilli jarayon bo‘lib, uning asosida gormonal disbalans yotadi. Estrogen gormonining nisbiy ortishi mioma hujayralarining faollashuviga olib keladi. Progesteron esa ayrim hollarda o‘sma to‘qimasining o‘sishini qo‘llab-quvvatlovchi omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Mioma rivojlanishiga irsiy moyillik, hayz siklining buzilishi, reproduktiv funksiyaning kech amalga oshishi, surunkali ginekologik kasalliklar, endokrin tizim faoliyatining buzilishi, kamharakat turmush tarzi va stress holatlari kabi omillar ham ta’sir ko‘rsatadi.

Mioma bachadon mushak hujayralarining nazoratsiz ko‘payishi natijasida shakllanadi. Ushbu jarayonda mahalliy qon aylanishining kuchayishi va hujayralarning o‘sishga bo‘lgan sezuvchanligining oshishi muhim rol o‘ynaydi. Mioma tugunlari odatda aniq chegaralangan bo‘lib, atrof to‘qimalardan farqlanib turadi.

Miomaning klinik belgilari ko‘p jihatdan tugunlarning o‘lchami, soni va joylashuviga bog‘liq bo‘ladi. Eng ko‘p uchraydigan belgilardan: hayz qon ketishining kuchayishi, hayzlar oralig‘ida qonli ajralmalar, qorin pastki sohasida bosim yoki og‘riq hissi, kamqonlik holatlarining rivojlanishi, siydik chiqarish va ich kelishi bilan bog‘liq noqulayliklar, homiladorlik bilan bog‘liq muammolarning paydo bo‘lishi bilan izohlanadi.

Ba’zi ayollarda mioma butunlay symptomsiz kechishi ham mumkin. Ultratovush tekshiruvchi bachadon miomasini aniqlashda eng qulay va xavfsiz diagnostik usul hisoblanadi. Ultratovush tekshiruvchi yordamida bachadon tuzilishi, mioma tugunlarining soni, o‘lchami va joylashuvi aniq baholanadi. Amaliyotda transabdominal va transvaginal tekshiruv usullari qo‘llaniladi. Transvaginal ultratovush tekshiruvchi kichik hajmli miomalarni aniqlashda yuqori



aniqlikni ta'minlaydi. Rangli dopplerografiya esa mioma tugunlarining qon bilan ta'minlanish darajasini baholash imkonini beradi.

Ultratovush tekshiruvchi bachadon miomasini boshqa ginekologik kasalliklardan farqlashda muhim ahamiyatga ega. Jumladan, adenomioz, endometriy poliplari, tuxumdon o'smalari va homiladorlikning dastlabki bosqichlari bilan farqlash zarur.

Ultratovush tekshiruvchi natijalari asosida miomani konservativ kuzatish yoki jarrohlik yo'li bilan davolash masalasi hal etiladi. Davolash jarayonida ultratovush nazorati o'smaning o'sish tezligini baholash va davolash samaradorligini aniqlash imkonini beradi.

Bachadon miomasi keng tarqalgan ginekologik kasallik bo'lib, uni aniqlash va kuzatishda ultratovush diagnostikasi asosiy o'rin egallaydi. Ultratovush tekshiruvchi shifokorining malakasi va tajribasi kasallikni to'g'ri baholash, differensial tashxis qo'yish hamda optimal davolash taktikasini tanlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida keltirilgan tasnif miomani davolash taktikasini tanlashda muhim ahamiyatga ega. Ultratovush tekshiruvchi bachadon miomasini aniqlashda asosiy, xavfsiz va informativ usul hisoblanadi. Ultratovush tekshiruvchi yordamida miomaning aniq joylashuvi, o'lchamlari, soni, tuzilish xususiyatlari baholanadi.

Transabdominal va transvaginal ultratovush tekshiruvchi usullari miomani aniqlashda keng qo'llaniladi. Ayniqsa, transvaginal ultratovush tekshiruvchi kichik o'lchamli miomalarni aniqlashda yuqori aniqlikka ega. Bachadon miomasi hayz siklining buzilishi, ko'p qon ketishlar, bepushtlik, qorin pastki qismida og'riq kabi klinik belgilar bilan namoyon bo'lishi mumkin. O'z vaqtida o'tkazilgan ultratovush tekshiruvchi kasallik asoratlarning oldini olishda muhim rol o'ynaydi.

Ultratovush tekshiruvchi ichki organlarni tadqiq qilishning eng keng tarqalgan va xavfsiz usullaridan biridir. Ushbu usulning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

Xavfsizlik, ya'ni ultratovush tekshiruvchi ionlashtiruvchi nurlanishni qo'llamaydi, bu esa uni homilador ayollar va bolalar uchun ham xavfsiz qiladi. Bu, ayniqsa, tez-tez tekshiruvlardan o'tish zarurati tug'ilganda juda muhim sanaladi. Noinvazivlik, ya'ni jarayon tanaga kirmasdan amalga oshiriladi, bu infeksiyalanish xavfini kamaytiradi va anesteziya talab qilmaydi. Axborot olish imkoniyati, ya'ni ultratovush tekshiruvchi yordamida ichki organlarning batafsil tasvirlarini olish, ularning tuzilishi va funksiyalarini baholash mumkin. Ushbu usul turli kasalliklarni aniqlash uchun ideal hisoblanadi. Qulaylik va tezlik, ya'ni ultratovush tekshiruvchi uzoq tayyorgarlikni talab qilmaydigan tezkor jarayonlardir. Keng qo'llanish sohasi, ya'ni ultratovush tekshiruvchi tibbiyotning turli sohalarida, jumladan, ginekologiya, kardiologiya, gastroenterologiya va urologiyada kasalliklarni aniqlash uchun qo'llaniladi.

Ultratovush tekshiruvchi turli organlar va tizimlarning holatini baholash imkonini beruvchi keng qamrovli tekshiruvlarni o'z ichiga oladi. Jumladan:

Kichik tos organlarining ultratovush tekshiruvchi. Ayollarda bachadon, tuxumdonlar va siydik pufagi, erkaklarda esa prostata bezini tekshirishni o'z ichiga oladi. Ushbu tekshiruv ginekologik va urologik kasalliklarni aniqlashga yordam beradi. Bundan tashqari, homiladorlik paytida ultratovush tekshiruvchi. Homila rivojlanishini kuzatish, uning o'lchami va holatini aniqlash, yo'ldosh va homiladorlik suvi holatini baholash uchun qo'llaniladi.

Shuningdek, follikulometriya - bu ultratovush tekshiruv turi bo‘lib, bunda shifokor ayolning butun hayz sikli davrida follikulogenezni kuzatishi mumkin. Ya’ni ushbu tekshiruv yordamida, follikulalar yetilish jarayonini kuzatib, monitor qilish imkoni mavjud, hamda dominant follikulani kuzatsa bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, servikometriya - bachadon bo‘ynini diagnostik maqsadda tekshirish ultratovush tekshiruv usuli bo‘lib, bunda shifokor homilador ayolda bola tushish havfini erta aniqlashi va boshqa homila patologiyalarini aniqlashtirishi mumkin. Qolaversa, gidrosonagrafiya - ultratovush tekshiruv diagnostika usuli bo‘lib, bu usul yordamida bachadon va uning naylari holati o‘rganiladi. Bachadon naylari rentgenidan farqli ravishda, bu usul, xavfsiz hisoblanadi, ambulatoriya usulida o‘tkaziladi.

Bachadon miomasini erta aniqlash va nazorat qilishda ultratovush diagnostikasi yetakchi o‘rinni egallaydi. Ultratovush tekshiruv shifokorning professional yondashuvi miomaning to‘g‘ri tashxislanishi va samarali davolash strategiyasini belgilashda muhim ahamiyatga ega.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Leiomioma. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Leiomioma>
2. Bachadon miomasi. <https://med24.uz/uz/bolezni/mioma-matki>
3. Z.T.Shirnova. Bachadon miomasi. Oldini olish va davolash chora tadbirlari. Journal of science-innovative research in uzbekistan” jurnali. volume 3, issue 01, 2025. january.654-660-b.
4. Hayz sikli buzilishi. <https://med24.uz/uz/bolezni/narusenie-menstrualnogo-tsikla>
5. <https://urologic.uz/uz/services/ginekologiya-uz>
6. <https://srcyrl.zoncareglobal.com/info/what-are-the-characteristics-of-color-doppler-89099649.html>
7. Qanday ginekologik kasalliklar mavjud. <https://ivf.uz/uz/patients/useful-articles/kakie-byvayut-ginekologicheskie-zabolevaniya>
8. Ultratovush-diagnostikasi. <https://sizonabolasis.uz/uz/ultratovush-diagnostikasi>